

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fayziyeva Mo'tabar Jalilovna

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar informatika va axborot texnologiyalariga
ixtisoslashtirilgan 42- tayanch maktabi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili o'quv mashg'ulotlarida interaktiv usullardan foydalanish, dars samaradorligining qay darajada oshishi muammoligi yoritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchining diqqatini jamlashda, topqirlik, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda noan'anaviy metodlardan foydalanish xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, interaktiv metod, qobiliyat, uslub, topqirlik, ijodkorlik, noan'anaviy metodlar.*

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qachon bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Sh.M.Mirziyoyev

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Jahon pedagogik amaliyotida o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, fan asoslarini o'zlashtirish va mustaqil bilish faoliyatini rag'batlantirish omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda kerativ fikrlashini rivojlantirishning innovatsion-didaktik tizimini, Life Skills (hayotiy ko'nikmalar)ga asoslangan kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda kerativ fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz ushbu maqolada “Kreativlik” haqida soʻz yuritar ekanmiz, avvalo, bu termini fanga kirib kelishi bilan tanishsak. Kreativlik soʻzi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qoʻllanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini taʼriflagan.

Kreativlik– bu insonning noodatiy gʻoya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning anʼanaviy shakllaridan voz kecha olishga boʻlgan qobiliyatidir. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.

Kreativlik – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi.

Maʼlumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror boʻlib, 1-sinf oʻquvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda oʻquvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. Oʻquvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va ogʻzaki nutqini oʻstirib, lugʻat boyligini oshiradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini oʻstirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi: “Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi oʻrtasida ova uunlilari, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan boʻladi. Oʻquvchilar undosh va bitta unli harflarni qoʻshib, bir necha soʻzlar tuzishadi. Oʻyin davomida oʻrtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. Oʻquvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan soʻzlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma oʻquvchilar baravar ishtirok etishadi.

Oʻqituvchi esa mashgʻulot davomida eng faol qatnashganlarni ragʻbatlantirib, baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. Oʻquvchi qancha koʻp harf oʻrgansa shu harflarni qoʻshib soʻz yasay oladi. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday soʻzlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka, uxla. Alifbe darsligi tugagandan soʻng 1-sinf ona tili kitobida dastlab oʻquvchilarga “Tovush va harf” haqida maʼlumotlar beriladi. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Bu holat muayyan qiyinchilik tugʻdirib, biroz boʻlsa-da oʻquvchilarning darsdan zerikishiga sabab boʻladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida koʻrsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol boʻladi. “Tovush va harf” boʻlimining dastlabki mashqlari ham oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda oʻquvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida koʻproq oʻquvchilarni baholashga xizmat qiladi. “Sinkveyn” metodi. Sinkveyn soʻzining maʼnosi “beshlik” boʻlib, “Qofiyalanmagan besh qatorlik sheʼr” degan maʼnoni anglatadi. Oʻquvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat sheʼr yozadilar. Bunga koʻra birinchi qator bitta soʻzdan iborat boʻlishi va bu ot soʻz turkumiga

oid soʻz boʻlishi, ikkinchi qator ikkita soʻzdan iborat boʻlishi va bu sifat soʻz turkumiga oid soʻzlar boʻlishi, uchinchi qator uchta soʻzdan iborat boʻlishi va bu feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar boʻlishi, toʻrtinchi qatorda toʻliq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi soʻzga sinonim boʻlgan bir soʻz qoʻyilishi mumkin. Ushbu metoddan 2-3-sinflarga oʻtgandan keyin oʻquvchilar soʻz turkumlari haqida tushunchalarga ega boʻlganlaridan soʻng foydalanishi mumkin. 2-sinf ona tili darsligida soʻz boʻlimida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan soʻzlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan.

Oʻqituvchi oʻquvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, oʻquvchilarni ham birbirlarining soʻzlariga eʼtibor bilan qarashga oʻrgatadi. Eʼtiroz yoki qoʻshimchalar ham “hurmatli”, “sizlarning fikringizga qoʻshilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi soʻzlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda oʻquvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va oʻz fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga oʻrganadi. Boshlangʻich taʼlimda ona tili oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash, lugʻat boyligini oshirish, ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish (yaʼni toʻgʻri oʻqish va yozish) ga, fonetika, leksika, soʻz yasalihi va gramatikaga oid bilimlarni oʻrganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim. Maʼlumki, ona tili darsida ham lugʻat ishlarini oʻtkazish oʻquvchilarda oʻzi uchun notanish boʻlgan soʻzni izohi haqida qiziqish paydo boʻladi. Bu soʻzlarning izohini topishda oʻquvchining oʻzi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish bilan bir qatorda lugʻat bilan ishlashga ham oʻrgatadi. Darslarda interaktiv usullar qoʻllashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha oʻquvchilar faollashishi zarur, yaʼni dars oʻtish jarayonida oʻquv materiallarining maʼlum bir qismi oʻquvchilar tomonidan mustaqil oʻrganiladi. Oʻqituvchi oʻquv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Oʻquvchilarning sinfda oʻzini erkin his qilishi va oʻquv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u oʻzining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisining ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini belgilovchi koʻplab omillar orasida ona tili darslarida mashqlarni oʻzlashtirish jarayonida bolada kreativ fikrlash, tasavvur, tafakkur, muloqot qobiliyatlari ham rivojlanishi mumkin. Bu jarayonda bola va oʻqituvchi birgalikda bolaning aniq kreativ fikrlashiga boʻysunadigan ochiq muammolar tizimiga aylanadi. Bu jarayon yosh oʻquvchi uchun qulay boʻlgan shakllarda amalga oshirilishi kerak. Ushbu nazariya doirasida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan samarali foydalanish, darsning muvaffaqiyatini taʼminlaydi, bu oʻqituvchi tomonidan pedagogik ssenariyning yaratilishi va yosh oʻquvchilar tomonidan ijodiy faoliyat jarayonida yangi harakatlarning indikativ asosini oʻzlashtirilishi bilan belgilanadi. Boshlangʻich sinflarda ona tili darslarni oʻtkazish, tashkil etishda, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar quydagilar:

Bostirib kirish metodi. Bu mashqlarning har xil turlarini bir vaqtning oʻzida idrok etishdan iborat. Bu usul yaxlit badiiy matnni yaratishga, maʼlumotni yanada toʻliq

o`zlashtirishga hissa qo`shadi, tovush, so`z olamiga chuqur kirib borishi tufayli jonli hissiy va hissiy javobni uyg`otadi.

Qarama-qarshilik metodi. U turli mashqlardagi vazifalarning qaramaqarshiligi tarzida olib boriladi. Qarama-qarshilik metodi vazifalarni qarama-qarshi qo`yish, o`quvchilarda qiziqishni uyg`otishga imkon beradi, hissiy javob berishning namoyon bo`lishini faollashtiradi. Har bir dars uchun o`qituvchi yosh o`quvchilarda atrofdagi dunyoga qiziqishni shakllantirishga yordam beradigan shunday diapazonni tanlashi kerak bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o`rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to`g`ri qo`llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko`p qo`llansa, o`quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O,,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O,,zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O,,zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanma.:– Toshkent 2015,40 bet;

4. G`afforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sinf uchun darslik.

5. Qosimova K, Fuzailov S, Ne`matova A. Ona tili.

6. S.B.Qorayev, S.B.Allayorova “Boshlang`ich sinf o`quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari”. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to`plami. 2020-yil

7. S.B.Sangirova, J.A.Raxmatov, S.G`.Xasanova, M.T.Hojiyeva “Umumta`lim maktablari uchun STEAM ta`limini joriy etish (Metodik qo`llanma). Toshkent. 2022-yil;

8. G.A.Yusufaliyeva, N.N.Abduraxmonova, A.M.To`rabekova “Boshlang`ich sinf o`quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o`qituvchining roli”. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to`plami. 2021-yil.